

**PENSIYA TA'MINOTINING IJTIMOY SUG'URTA TIZIMIDA TUTGAN
O'RNI**

Majidova Umida- BMA tinglovchisi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad aholi turmush farovonligini yaxshilashdir. Bozor iqtisodiyoti turmush darajasining pasayishi, mamlakat aholisining daromad jihatdan tabaqalashuvini kuchayishi, inflyatsiya, ishsizlik, ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, bir qator aholi tabaqalarining turmush kechirish manbalaridan mahrum bo'lishi kabi bir qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Bozor iqtisodiyoti qanchalik o'zini o'zi tartibga solish imkoniyatiga ega bo'lmasin, yuqoridagi murakkab muammolarni hal qilishga qodir emas. Mazkur ijtimoiy muammolarni hal etish uchun kuchli ijtimoiy siyosat yuritilishi taqazo etiladi. Bunday siyosatning mohiyati shundaki, davlat aniq ishlab chiqilgan va bozor munosabatlariga o'tishni yumshatadigan, aholining u yoki bu sabablarga ko'ra daromad ishlab topish imkoniyatiga ega bo'lmagan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimi orqali qamrab olishga harakat qiladi. Mamlakatda kuchli va samarali ijtimoiy sug'urta tizimining shakllantirilishi vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni bartaraf qilish imkonini beradi.

Bu borada jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashda muhim o'rin egallaydi.

Pensiya tizimi sug'urta asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari jamg'armasidan foydalanishga asoslanadi. Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamg'armalari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablag'larning qat'iy maqsadli ishlatilishi, mablag'larning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil, budjetdan tashqari moliya-kredit tashkiloti ekanligi hamda ijtimoiy sug'urtaning muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, iqtisodiy adabiyotlarda pensiya jamg'armalarining mohiyatini belgilashda uch nuqtai nazardan yondashilib kelinmoqda, ya'ni, uning ijtimoiy ta'minot uchun mo'ljallangan mablag'lar ekanligi; mustaqil moliya-kredit tashkiloti; ijtimoiy yo'nalishdagi budjetdan tashqari jamg'arma ekanligi e'tirof etiladi. Bu jamg'armalarning ijtimoiy sug'urtaning tarkibiy elementi ekanligi e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Bu jihat, pensiya jamg'armalarini fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subektlarning majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari, davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va muayyan ijtimoiy xavf-xatarlarga muvofiq sug'urtalangan aholi toifalariga to'lovlarni amalga oshirish va ijtimoiy himoyalash uchun mo'ljallangan mustaqil pul jamg'armalari sifatida ta'riflash imkonini beradi.

Milliy iqtisodiyotdagi pensiya tizimi taqsimot munosabatlari mahsuli bo'lib, katta ijtimoiy yukni ko'taradi. Uning mablag'lari firmalar, korxonalar, uy xo'jaliklari va davlat singari iqtisodiyot sub'ektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'tish iqtisodiyotining ko'p ukladli xususiyatiga muvofiq mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalardan iborat bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida aholini himoyalashda ijtimoiy ta'minot modelidan ijtimoiy sug'urta modeliga o'tishda jahon tajribasi va milliy amaliyotimizga xos xususiyatlar inobatga olinishi, pensiya tizimining ijtimoiy sug'urta tizimida tutgan o'rni nazariy va amaliy jihatdan aniq belgilab olinishi lozim. Boshqacha aytganda ijtimoiy sug'urta tizimi, xususan pensiya tizimining shakllanishi ilg'or tamoyillarga asoslanishi, ijtimoiy xavf-xatar va aktuar hisoblar nazariyasiga tayanishi va avtonom, o'zini-o'zi idora qiluvchi sherikchilik yig'indisi ko'rinishida amalga oshiriladi.

Pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik oqimi bo'lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa qismlari uzviy bog'liq bo'lib, to'g'ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mamlakatning aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida pensiya ta'minoti muhim o'rin tutadi. Demografik omillar ta'sirida aholi tarkibida pensiya yoshidagilar ulushining ortib, mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarib borishi barqaror, ishonchli moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan pensiya tizimini yaratishning maqbul modelini tanlashni taqozo etadi. Shu sababli dunyo mamlakatlarida pensiya tizimining tarkibi, amal qilishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Jahon amaliyotida pensiya ta'minotining quyidagi bazaviy institutlari mavjud bo'lib, ular pensiya tizimi modellarini guruhlashtirish imkonini beradi:

1. Ijtimoiy yordam. Bu aksariyat mamlakatlarda amal qiluvchi pensiya yoshidagi aholi tarkibida kambag'allik ulushini qisqartirish maqsadida amalga oshiriladigan qayta taqsimot dasturi hisoblanadi.

2. Majburiy pensiya sug'urtasi. Ushbu sug'urta mehnatga layoqatli davrda erishilgan turmush darajasining pasayib ketishi bilan bog'liq risklarni sug'urtalash maqsadida yollanib ishlovchilar va o'zini-o'zi ish bilan ta'minlovchi shaxslar tomonidan majburiy sug'urta badallarini to'lashni taqozo etadi. Taqsimot yoki jamg'arish tamoyillariga asoslangan pensiya dasturlari deyarli barcha mamlakatlarda amal qiladi.

3. Shaxsiy (ixtiyoriy) pensiya sug'urtasi. Ushbu sug'urta kengaytirilgan yoki ayrim holatlarda ikkinchi institutning o'rnini bosuvchi sug'urta hisoblanib, fuqarolarning xohish ixtiyori va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Fuqarolarning mehnat faoliyati tugagandan keyin ixtiyoriy sug'urta ularning turmush darajasiga real ta'sir ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda ixtiyoriy pensiya sug'urtasi ishchilovchilarni mehnat faoliyati tugagandan keyingi davrda o'zini-o'zi himoyalashning muhim mexanizmi vazifasini o'taydi.

Mutaxassislarning fikricha, qayd etib o'tilgan institutlarning barchasidan foydalanish nisbatan ishonchli pensiya ta'minoti tizimini tashkil etish imkonini beradi.

Ma'lumki, birinchi klassik pensiya tizimi XIX asr oxirlaridan paydo bo'lgan bo'lib, birinchi to'laqonli pensiya tizimini yaratish borasida yetakchi davlat

Germaniyadir. 1883-1884 yillarda Germaniyada kasallik va shikast olganlik uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy qilindi, keyinchalik 1889 yilda esa pensiya ta'minoti paydo bo'ldi. XIX asrning 20-yillaridan boshlab pensiya ta'minoti barcha rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning asosiy shakliga aylandi.

Mamlakatlarda yuz berayotgan iqtisodiy va demografik o'zgarishlarga bog'liq ravishda pensiya ta'minoti sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda, pensiyalarni tayinlash va to'lash tartibi o'zgarib, takomillashtirilib borilmoqda. O'z navbatida pensiya ta'minoti tizimini tashkil qilish shakllari va moliyalashtirish usullari bugungi kunga qadar ilmiy munozara maydonida bo'lib kelmoqda va muhokamalar davom etmoqda. Ushbu sohada izlanish olib borayotgan ba'zi mutaxassislar va tadqiqotchilar pensiya tizimlarini davlatning iqtisodiyotdagi roli, xususi va davlat pensiya tizimlari komponentlarining o'zaro nisbatidan kelib chiqib guruhlashga harakat qilishadi. Ularning fikricha pensiya tizimlari evolyutsiyasi davlat modellarining aralash modellarga qarab, aralash modellardan esa xususiy modellarga qarab rivojlangan.

Boshqa guruh mutaxassislar pensiya tizimlarini tashkil etishning anglosakson (Beveridj modeli) va kontinental (Bismark modeli) tizimlarini farqlashadi. Ularning fikricha Beveridj modeliga (Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada) xos xususiyatlar quyidagilardan iborat: ish haqi miqdorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining yuqoriligi (60-65%), taqsimot tizimiga ajratilayotgan badallar miqdorining kamligi (ish haqi miqdoriga nisbatan 12-14 % yoki YaIMga nisbatan 6-7 %), qo'shimcha pensiya jamg'armalarining mavjudligi (YaIMga nisbatan 3-4%).

Bismark modeli (Germaniya, Italiya, Avstriya, Fransiya) esa quyidagi xususiyatlarga ega: ish haqi miqdorining YaIMdagi ulushining kamligi (45-50%), badallar miqdorining yuqoriligi (YaIMga nisbatan 15% gacha), qo'shimcha pensiya jamg'armalarining mavjudligi (YaIMga nisbatan 2-3%).

Boshqa guruh iqtisodchilar esa, pensiya tizimini tashkil etishning quyidagi uch xil turini farqlashadi:

Beveridj modeli. Buyuk Britaniya, Avstraliya, Irlandiya, Kanada va Shimoliy Yevropaning qator mamlakatlari uchun xos bo'lib, sobiq sovet pensiya tizimiga xos

bo'lgan umumiy tamoyillarga ega.

Xususiy korporativ model. Ushbu model AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Portugaliya, Belgiya, Niderlandiya, Finlyandiyaga xos bo'lib, ustun darajada nodavlat pensiya jamg'armalari faoliyatiga asoslanadi.

Bismark modeli. Germaniya, Avstriya, Lyuksemburg, Fransiya, Italiya, Gretsiya, Shveysariyada qo'llaniladi. Ushbu model pensiya fondlarini shakllantirishda ish beruvchilar va yollanib ishlovchilarning teng qatnashishlariga asoslanadi.

Moliyalashtirish usullariga ko'ra taqsimlovchi (avlodlar birdamligi) va jamg'arib boriladigan pensiya tizimlari farqlanadi.

Taqsimot tizimi "avlodlar birdamligi" tamoyiliga asoslangan bo'lib, pensionerlarga pensiya to'lovlari keyingi avlod tomonidan to'lanadigan badallari hisobidan ta'minlanadi.

Jamg'ariladigan tizimda esa badallar pensionerlarga joriy to'lovlarni amalga oshirish uchun emas, balki kapitallashtiriladi va investitsiyalashdan olingan daromadlar bilan birgalikda keyinchalik jamg'arishni amalga oshirgan shaxslarning pensiya ta'minoti uchun foydalaniladi. Aksariyat mamlakatlarda pensiya tizimlarida taqsimot va jamg'ariladigan tamoyillari birontasining ustuvorligi sharoitida aralash qo'llaniladi.

Ularning har biri muayyan iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun foydalanilishi mumkin, ammo pensiya ta'minotining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning samarali vositasi ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi.

Pensiya ta'minotidagi institutsional o'zgarishlar samarasi avvalo ularning qanday sotsial institutlar va mexanizmlarga tayanishi, qanday sotsial dastaklar va indikatorlardan foydalanishiga, tartibga solinish xususiyatlariga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мосейко В. В. Генезис пенсионных систем как проявление социальной функции государства // Центр проблемного анализа и государственно-управленческого проектирования. 2008.

2. Роик В.Д. Эволюция пенсионных систем: мировые тенденции и опыт России //Человек и Труд. 2008. № 8.

3. Шатохин И.Г. Пенсионные системы в России и за рубежом: Учебное пособие/Мин-во образования Российской Федерации, Яросл. гос. ун-т им. П.Г. Демидова. -Ярославль: Изд-во ЯрГУ. 2002. -С7.